KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINI SOLIQQA TORTISHNING HUQUQIY MUAMMOLARI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHLARI

Shavkatullayev Farid Timurovich
Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti
faridtimurovich@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.24410781

ANNOTATSIYA: Maqolada kichik biznes subyektlarini soliqqa tortishning huquqiy muammolari kompleks tahlil qilinadi. Tadqiqotda O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi normalari, soliq rejimlarining huquqiy tabiati, soliq qonunchiligining barqarorligi, soliq rejimini suiiste’mol qilishning huquqiy mezonlari, soliq nazorati va javobgarligida mutanosiblik tamoyili, soliq ma’muriyatchiligini raqamlashtirish hamda soliq nizolarini hal etish mexanizmlari o‘rganilgan. Xorijiy davlatlar tajribasi qiyosiy-huquqiy jihatdan tahlil qilinib, milliy qonunchilikka moslashtirish imkoniyatlari baholangan. Natijada soliq rejimlari o‘rtasida o‘tish mexanizmidagi kolliziyalar aniqlanib, soliq normalarini o‘zgartirishning oldindan e’lon qilinishi va o‘tish davri tartibi, kichik biznes huquqlarining kuchaytirilgan kafolatlari hamda Soliq kodeksiga o‘zgartishlar kiritish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan.
Kalit so‘zlar: kichik biznes, soliq huquqi, maxsus soliq rejimi, soliq nazorati, soliq nizolari, soliq ma’muriyatchiligi, soliq to‘lovchi huquqlari, qiyosiy-huquqiy tahlil.

АННОТАЦИЯ: В статье комплексно анализируются правовые проблемы налогообложения субъектов малого бизнеса. Рассматриваются нормы Налогового кодекса Республики Узбекистан, правовая природа специальных налоговых режимов, стабильность налогового законодательства, критерии правовой квалификации злоупотребления налоговым режимом, принцип соразмерности при налоговом контроле и привлечении к ответственности, правовые аспекты цифровизации налогового администрирования и механизмы разрешения налоговых споров. Проведён сравнительно-правовой анализ опыта зарубежных государств и оценены возможности его адаптации в национальное законодательство. Выявлены правовые коллизии при переходе между налоговыми режимами; предложены заблаговременное опубликование изменений налоговых норм и переходный период, усиленные гарантии прав субъектов малого бизнеса, а также конкретные изменения и дополнения в Налоговый кодекс.
Ключевые слова: малый бизнес, налоговое право, специальный налоговый режим, налоговый контроль, налоговые споры, налоговое администрирование, права налогоплательщика, сравнительно-правовой анализ.

ABSTRACT: The article provides a comprehensive analysis of the legal problems of taxing small business entities. It examines the provisions of the Tax Code of the Republic of Uzbekistan, the legal nature of special tax regimes, the stability of tax legislation, legal criteria for abuse of a tax regime, the principle of proportionality in tax control and liability, the legal aspects of digital tax administration, and tax dispute resolution mechanisms. A comparative legal analysis of foreign experience is conducted, and the prospects of adapting it to national legislation are assessed. The study identifies legal collisions in switching between tax regimes and proposes advance publication of changes to tax rules with a transitional period, enhanced guarantees for small businesses, and specific amendments to the Tax Code.

Key words: small business, tax law, special tax regime, tax control, tax disputes, tax administration, taxpayer rights, comparative legal analysis.

KIRISH

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik iqtisodiy o‘sish, yangi ish o‘rinlari yaratish, aholi bandligini ta’minlash, raqobat muhitini shakllantirish hamda hududlarni rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. Shu sababli ushbu subyektlarga nisbatan qo‘llaniladigan soliq tizimi davlatning fiskal manfaatlarini ta’minlash bilan birga tadbirkorlik tashabbusini rag‘batlantirishi va xususiy mulk daxlsizligini kafolatlashi zarur. O‘zbekistonda tadbirkorlikni rivojlantirish, xususiy mulkni himoya qilish va biznes yuritish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi hamda “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari sifatida belgilangan[1].

Soliq tizimini isloh qilish jarayonida tadbirkorlar uchun soliq yukini maqbullashtirish, soliq turlarini qisqartirish va soliq ma’muriyatchiligini takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirildi. 2020-yil 1-yanvardan yangi tahrirdagi Soliq kodeksining kuchga kirishi soliq solish prinsiplari, soliq to‘lovchilarning huquq va majburiyatlari, soliq nazorati shakllari hamda turli soliq rejimlariga oid normalarni tizimlashtirdi[2]. Shunga qaramay, amaliyotda kichik biznesni soliqqa tortish bilan bog‘liq bir qator huquqiy muammolar saqlanib qolmoqda: faoliyat ko‘lami, yillik aylanma va tashkiliy-huquqiy shaklga qarab soliq tartiblarining farqlanishi; soliq rejimini tanlash va o‘zgartirish shartlarining murakkabligi; soliq stavkalari va chegaraviy ko‘rsatkichlarning tez-tez o‘zgarishi; soliq rejimini suiiste’mol qilish mezonlarining noaniqligi; nazorat tadbirlarini o‘tkazishda mutanosiblik talablariga rioya etilishi; raqamli soliq ma’muriyatchiligi bilan bog‘liq yangi xavflar hamda soliq nizolarini hal etish mexanizmlarining takomillashmaganligi.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, kichik biznesning aksariyat qismida alohida yuridik va soliq xizmatlari mavjud emas, shu bois qonunchilikdagi o‘zgarishlar va huquqiy noaniqliklar ular uchun qo‘shimcha huquqiy va tashkiliy yuk bo‘ladi. Elektron hisobvaraq-fakturalar, onlayn nazorat-kassa texnikasi, elektron hisobotlar va axborot tizimlarining joriy etilishi soliq majburiyatlarini bajarishni osonlashtirish bilan birga elektron ma’lumotlarning to‘g‘riligi, texnik xatolar oqibatlari va shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish kabi yangi huquqiy masalalarni yuzaga keltirmoqda. Shu bois kichik biznesni soliqqa tortish faqat byudjet daromadlarini shakllantirish bilan bog‘liq iqtisodiy jarayon sifatida emas, balki tadbirkorlik erkinligi, mulkiy huquqlar, davlat nazorati va huquqiy javobgarlik bilan uzviy bog‘liq kompleks huquqiy institut sifatida tadqiq etilishi lozim.

Tadqiqotning obyekti bu kichik biznes subyektlarini soliqqa tortish jarayonida yuzaga keladigan soliqqa oid huquqiy munosabatlar. **Tadqiqotning predmeti** kichik biznesni soliqqa tortishni tartibga soluvchi Soliq kodeksi va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar normalari, ularni qo‘llash amaliyoti, soliq to‘lovchilarning huquq va majburiyatlari hamda xorijiy davlatlarning tegishli qonunchiligi va ilg‘or tajribasi hisoblanadi. **Tadqiqotning maqsadi** esa kichik biznesni soliqqa tortishning huquqiy muammolarini aniqlash, tizimli tahlil qilish va soliq qonunchiligini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi: kichik biznes subyektlari tushunchasi va mezonlarini hamda ularni soliqqa tortishning nazariy-huquqiy asoslarini ochib berish; umumbelgilangan

[1] “Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 16.02.2026 yildagi PF-21-son https://lex.uz/docs/-8050769

[2] O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi, 2019-yil 30-dekabr, O‘RQ-599-son (yangi tahrir) https://lex.uz/acts/-4674902

va maxsus soliq rejimlarining huquqiy tabiatini tahlil qilish; soliq to‘lovchi huquqlari kafolatlari, soliq nazorati va nizolarni hal etish mexanizmlaridagi muammolarni aniqlash; soliq ma’muriyatchiligini raqamlashtirishning huquqiy jihatlarini o‘rganish; Qozog‘iston, Rossiya, AQSH, Germaniya va Xitoy tajribasini qiyosiy-huquqiy tahlil qilish; amaldagi qonunchilikni takomillashtirish bo‘yicha aniq takliflar ishlab chiqish.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Kichik biznesni soliqqa tortish iqtisodiyot, moliya, soliq huquqi va tadbirkorlik huquqi fanlari kesishgan keng o‘rganilgan yo‘nalish hisoblanadi. **Xorijiy ilmiy adabiyotlarda** soliq huquqining nazariy asoslari, soliq majburiyatlarining huquqiy tabiati va davlatning soliqqa tortish vakolatlari V. Thuronyi, H.J. Ault, B.J. Arnold, B.J.M. Terra va P.J. Wattel kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan; ularning ishlarida soliq qonunchiligining tizimliligi, soliqqa tortish vakolatlari chegaralari va soliq tizimlarining o‘zaro muvofiqligi masalalari yoritilgan[3]. Soliq siyosatining tadbirkorlik faoliyatiga ta’siri, soliq ma’muriyatchiligi xarajatlari va soliq intizomini ta’minlash masalalari J. Slemrod, R. Bird va boshqa iqtisodchilarning tadqiqotlarida tahlil qilingan[4]. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) tahlillarida kichik va o‘rta biznesni soliqqa tortishning soddalashtirilgan rejimlari, ma’muriy xarajatlarni kamaytirish va teng raqobat sharoitlarini yaratish masalalari yoritilgan[5].

MDH ilmiy maktablarida moliya va soliq huquqining umumiy nazariy masalalari N.I. Ximicheva, soliq-huquqiy munosabatlar va soliq to‘lovchining huquqiy maqomi S.G. Pepelyayev, soliq huquqi subyektlari va munosabatlarini huquqiy tartibga solish D.V. Vinnitskiy, soliq-huquqiy normalarni qo‘llash masalalari A.V. Demin tomonidan o‘rganilgan. O‘zbekistonda soliq tizimini isloh qilish, soliq yukini maqbullashtirish, soliq imtiyozlaridan foydalanish, soliq nazoratining samaradorligi va soliq ma’muriyatchiligini raqamlashtirish masalalari iqtisodchi va huquqshunos olimlarning ishlarida yoritilgan.

Mavjud tadqiqotlarning tahlili kichik biznesni soliqqa tortish ko‘proq iqtisodiy samaradorlik va soliq yukini kamaytirish nuqtayi nazaridan o‘rganilganini ko‘rsatadi. Soliq rejimini tanlash va o‘zgartirishda huquqiy aniqlik, nazorat vakolatlarini amalga oshirishda mutanosiblik, soliq qarzdorligini undirishda mulkiy manfaatlarni hisobga olish va nizolarni sudgacha hal etish masalalari alohida-alohida yoritilgan bo‘lsa-da, ularni yagona tizim doirasida kompleks tahlil qilishga ehtiyoj saqlanib qolmoqda. Ayniqsa, 2020-yildan keyingi islohotlar, elektron shakllarning kengayishi va nazorat mexanizmlarining o‘zgarishi kichik biznesning soliq-huquqiy maqomini qayta baholashni taqozo etadi.

Metodologiya. Tadqiqotda tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, tizimli yondashuv hamda xususiy-ilmiy metodlar bo‘lgan formal-huquqiy, qiyosiy-huquqiy, tarixiy-huquqiy, normativ-mantiqiy, statistik tahlil, sud va soliq amaliyotini o‘rganish metodlari qo‘llanildi. Normativ asos sifatida Soliq kodeksi va unga kiritilgan o‘zgartishlar, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga oid strategik hujjatlar tahlil qilindi. Qiyosiy-huquqiy tahlil Qozog‘iston, Rossiya, AQSH, Germaniya va Xitoy tajribasi bo‘yicha, shuningdek OECD materiallari asosida olib borildi.

---

[3] Victor Thuronyi, Comparative Tax Law (Kluwer Law International 2003); Hugh J Ault and Brian J Arnold, Comparative Income Taxation: A Structural Analysis (3rd edn, Kluwer Law International 2010); Ben J M Terra and Peter J Wattel, European Tax Law (6th edn, Kluwer Law International 2012).

[4] Joel Slemrod and Shlomo Yitzhaki “Tax Avoidance, Evasion, and Administration” in Alan J Auerbach and Martin Feldstein (eds), Handbook of Public Economics, vol 3 (Elsevier 2002) 1423–1470; Richard M Bird “Improving Tax Administration in Developing Countries” (2015) 1(1) Journal of Tax Administration 23–45; Joel Slemrod “Tax Compliance and Enforcement: New Research and Its Policy Implications” (2016).

[5] OECD, Tax Administration 2025: Comparative Information on OECD and Other Advanced and Emerging Economies (OECD Publishing 2025).

NATIJALAR

Tadqiqot natijasida kichik biznes subyektlarini soliqqa tortishning huquqiy asoslari, mavjud soliq rejimlarining o‘zaro nisbati, soliq ma’muriyatchiligidagi muammolar va tadbirkorlik faoliyatini himoya qilish kafolatlari kompleks tahlil qilindi. O‘rganishlar asosida quyidagi ilmiy-nazariy xulosalar va amaliy takliflar shakllantirildi.

Birinchidan, kichik biznes subyektlarini soliqqa tortishning huquqiy rejimlari, xususan, umumbelgilangan va maxsus soliq rejimlari kompleks tasniflanib, ularning qo‘llanish shartlari va o‘zaro nisbati aniqlandi. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 18-moddasida maxsus soliq rejimlari, jumladan, aylanmadan olinadigan soliq nazarda tutilgan. Tadqiqot davomida ushbu rejimlar o‘rtasidagi o‘tish mexanizmi tadbirkorlik subyektining yillik jami daromadi, faoliyat turi, QQS to‘lovchisi sifatida ro‘yxatdan o‘tish majburiyati va soliq hisobotlarini yuritish imkoniyatlari bilan bevosita bog‘liqligi asoslandi. Xususan, 2026-yil 1-iyundan boshlab umumbelgilangan soliq tartibiga o‘tish chegarasining bazaviy hisoblash miqdorining 12000 baravarigacha oshirilishi mazkur masalaning amaliy ahamiyatini yanada kuchaytirdi. Shu munosabat bilan maxsus rejimdan umumbelgilangan rejimga o‘tishda soliq majburiyatlarining yuzaga kelish sanasi, hisobot davri, QQS bo‘yicha hisobga turish va avvalgi davr soliq majburiyatlarini hisobga olish tartibini aniq belgilash zarurligi asoslandi[6].

Ikkinchidan, soliq qonunchiligining barqarorligi va oldindan prognoz qilinishi tamoyillarini ta’minlash bo‘yicha takliflar ishlab chiqildi. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, soliq stavkalari, imtiyozlar va chegaraviy ko‘rsatkichlarning tez-tez o‘zgarishi kichik biznes subyektlarining uzoq muddatli biznes-rejalari, investitsiya qarorlari va moliyaviy majburiyatlariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli soliq stavkalari va maxsus rejimlarni qo‘llash mezonlarini o‘zgartirishdan oldin tadbirkorlarni oldindan xabardor qilish, qonunchilikda kamida olti oylik o‘tish davrini nazarda tutish hamda yangi tartiblarni bosqichma-bosqich joriy etish taklif qilindi. Mazkur taklif Soliq kodeksining 4-moddasida mustahkamlangan soliq qonunchiligining vaqt bo‘yicha amal qilishi va qonun hujjatlarining orqaga qaytish kuchiga ega emasligi qoidalari bilan uzviy bog‘liqdir[7].

Uchinchidan, kichik biznes subyektlarining soliq munosabatlaridagi huquqlarini himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish va soliq nazoratida mutanosiblik tamoyilini ta’minlash zarurligi asoslandi. Xususan, soliq tekshiruvlarini tayinlash va o‘tkazishda qonuniy asoslar, tekshiruv predmetining aniq chegaralari, soliq to‘lovchining tushuntirish berish va dalillar taqdim etish huquqlari ta’minlanishi lozimligi ko‘rsatildi. Shuningdek, soliq huquqbuzarligi uchun javobgarlik choralarini belgilashda huquqbuzarlikning xususiyati, yetkazilgan zarar miqdori, ayb darajasi, takroriylik holati va uning oqibatlarini hisobga olish taklif etildi. Bunda texnik xatolar, hisob-kitoblardagi tuzatilishi mumkin bo‘lgan kamchiliklar va qasddan sodir etilgan soliq huquqbuzarliklarini huquqiy jihatdan farqlash muhimligi asoslandi. Natijada halol tadbirkorlik faoliyatini asossiz ma’muriy aralashuvdan himoya qilish bilan birga, soliq intizomini ta’minlashning mutanosib mexanizmini shakllantirish taklif qilindi.

To‘rtinchidan, maxsus soliq rejimlaridan sun’iy foydalanish va soliq majburiyatlarini kamaytirishga qaratilgan harakatlarni aniqlashning huquqiy mezonlari ishlab chiqildi. Xususan, bitta xo‘jalik faoliyatini bir nechta yuridik shaxs yoki yakka tartibdagi tadbirkorlar o‘rtasida sun’iy taqsimlash, o‘zaro bog‘liq shaxslar orqali operatsiyalarni amalga oshirish va aylanmani belgilangan soliq chegarasidan past ko‘rsatishga qaratilgan holatlar tahlil qilindi. Bunday vaziyatlarda faqat rasmiy ro‘yxatdan o‘tish yoki

---

[6] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kichik biznes subyektlarining o‘sishi uchun yanada qulay iqtisodiy va ma’muriy shart-sharoitlar yaratish to‘g‘risida”gi PF-100-son Farmoni (26-may 2026-yil), 3-modda. https://www.lex.uz/uz/docs/-8236831

[7] OECD “Corporate Income Taxation and Business Dynamism” (OECD Tax Policy Briefs, 27 May 2026). https://www.oecd.org/en/publications/corporate-income-taxation-and-business-dynamism_59a40a50-en

ta’sischilar tarkibiga emas, balki bitimlarning haqiqiy iqtisodiy mazmuni, boshqaruv va moliyaviy mustaqillik, xodimlar hamda moddiy resurslardan foydalanish xususiyatlari va operatsiyalarning iqtisodiy maqsadiga baho berish taklif etildi. Bunda soliq organlari tomonidan tadbirkorlik subyektlarining o‘zaro bog‘liqligi aniqlanganining o‘zi soliq majburiyatlarini qayta hisoblash uchun yetarli asos bo‘lmasligi, iqtisodiy mazmunni buzib ko‘rsatish va soliq majburiyatlarini asossiz kamaytirish holatlari tegishli dalillar bilan isbotlanishi lozimligi asoslandi.

Beshinchidan, xorijiy davlatlarning kichik biznesni soliqqa tortish bo‘yicha tajribasi qiyosiy-huquqiy jihatdan o‘rganilib, ularni milliy qonunchilikka moslashtirish yo‘nalishlari belgilandi. Jumladan, Qozog‘istonning soddalashtirilgan deklaratsiya asosidagi maxsus soliq rejimi kichik tadbirkorlik subyektlari uchun hisobot va soliq hisob-kitoblarini yengillashtirish nuqtayi nazaridan[8], Germaniyaning QQS bo‘yicha kichik tadbirkorlar uchun belgilangan Kleinunternehmerregelung tartibi kichik aylanmali subyektlarning ma’muriy xarajatlarini kamaytirish jihatidan[9], AQSHdagi Taxpayer Bill of Rights instituti soliq to‘lovchilarning protsessual huquqlarini kafolatlash nuqtayi nazaridan tahlil qilindi[10]. Shuningdek, Rossiya Federatsiyasi Soliq kodeksining 54.1-moddasida soliq bazasini asossiz kamaytirishga qaratilgan harakatlarni cheklash mexanizmlari o‘rganildi[11]. OECDning 2026-yilda e’lon qilingan Corporate Income Taxation and Business Dynamism tadqiqotida ham soliq qonunchiligining murakkabligi va soliq majburiyatlarini bajarish xarajatlari kichik hamda yangi tashkil etilgan korxonalar uchun nisbatan yuqori yuk hosil qilishi qayd etilgan. Ushbu tajribalar asosida O‘zbekistonda kichik biznes uchun sodda soliq hisobotlari, tushunarli mezonlar, soliq to‘lovchilarning huquqlarini himoya qilish kafolatlari va ma’muriy xarajatlarni kamaytirish mexanizmlarini rivojlantirish taklif qilindi.

Oltinchidan, raqamli soliq ma’muriyatchiligini takomillashtirish va soliq nizolarini hal etish mexanizmlarini rivojlantirish bo‘yicha takliflar shakllantirildi. Xususan, elektron hisobvaraq-fakturalar, onlayn nazorat-kassa texnikasi ma’lumotlari va soliq hisobotlari o‘rtasidagi tafovutlarni aniqlashda texnik xatolarni avtomatik ravishda huquqbuzarlik sifatida baholashga yo‘l qo‘ymaslik, soliq organlarining axborot tizimlarida yuzaga kelgan uzilishlar natijasida soliq to‘lovchiga zarar yetkazilgan hollarda javobgarlik masalasini aniqlashtirish zarurligi asoslandi. Shuningdek, 2026-yil 1-iyundan 2030-yil 1-yanvarga qadar umumiy ovqatlanish, savdo va xizmat ko‘rsatish sohasidagi ayrim tadbirkorlik subyektlariga ixtiyoriy ravishda QQSni soddalashtirilgan tartibda, 6 foiz stavkada hisoblash imkoniyatining berilishi raqamli soliq ma’muriyatchiligi va maxsus rejimlarni takomillashtirishning amaliy misoli sifatida baholandi. Mazkur tartibda foyda solig‘i stavkasining 0 foiz etib belgilanishi va foyda solig‘i hisobotini topshirish majburiyatining bekor qilinishi tadbirkorlar uchun ma’muriy yukni kamaytirishga qaratilgan. Shu bilan birga, xarid qilingan tovar va xizmatlar bo‘yicha QQSni hisobga olish huquqining mavjud emasligi ushbu rejimni tanlashda tadbirkorning xarajatlari va faoliyat xususiyatlarini hisobga olish zarurligini ko‘rsatadi.

Umumiy natija sifatida, tadqiqotda kichik biznes subyektlarini soliqqa tortish tizimini takomillashtirish faqat soliq stavkalarini kamaytirish bilan cheklanmasligi, balki soliq rejimlari o‘rtasidagi o‘tishning aniqligi, qonunchilik barqarorligi, soliq nazoratining mutanosibligi, tadbirkorlarning protsessual huquqlarini himoya qilish va raqamli ma’muriyatchilikning ishonchliligini ta’minlash bilan chambarchas bog‘liqligi asoslandi. Shu asosda Soliq kodeksiga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish hamda kichik biznes

[8] Code of the Republic of Kazakhstan “On Taxes and Other Obligatory Payments to the Budget” (Tax Code) No 120-VI LRK (25 December 2017), art 687.

[9] Umsatzsteuergesetz (Value Added Tax Act) (UStG) 1999 (Germany), s 19.

[10] Internal Revenue Code 26 USC § 7803(a)(3) (USA).

[11] Tax Code of the Russian Federation (Part One) No 146-FZ (31 July 1998), art 54.1.

subyektlarining soliq majburiyatlarini bajarishini yengillashtirishga qaratilgan normativ-huquqiy takliflar ishlab chiqildi.

MUHOKAMA

Olingan natijalar kichik biznesni soliqqa tortishga faqat iqtisodiy yondashuv yetarli emasligini tasdiqlaydi. Xorijiy tadqiqotlarda soliq tizimining samaradorligi va ma'muriy xarajatlar bilan bog'liq masalalar chuqur o'rganilgan bo'lsa, MDH olimlarining ishlarida soliq-huquqiy munosabatlar va soliq to'lovchi maqomi nazariy jihatdan asoslangan. Ushbu maqolada esa bu yondashuvlar kichik biznes subyektlari misolida yagona huquqiy institut doirasida birlashtirildi: rejimlarning huquqiy tabiati, o'tish mexanizmi, nazorat va javobgarlikdagi mutanosiblik, suiiste'mol mezonlari va nizolarni hal etish o'zaro bog'liq holda tahlil qilindi.

Xorijiy tajribani moslashtirishda milliy huquqiy tizimning o'ziga xosligini hisobga olish muhim. Masalan, soliqni asossiz kamaytirishga qarshi qoidalar bitimning iqtisodiy mazmunini baholashga imkon bersa-da, ularning aniq mezonlarsiz qo'llanilishi tadbirkorlar uchun huquqiy noaniqlik xavfini oshirishi mumkin. Shu sababli taklif etilgan mezonlar soliq organlari vakolatlarini kengaytirish emas, balki ularni qonuniylik, mutanosiblik va huquqiy aniqlik talablari doirasida cheklash vositasi sifatida qaralishi kerak. Soliq stavkalari va chegaraviy ko'rsatkichlarni oldindan e'lon qilish tartibi esa fiskal moslashuvchanlikka to'sqinlik qilishi mumkinligi sababli, favqulodda hollar uchun alohida istisnolarni nazarda tutishni talab etadi.

Tadqiqotning cheklovlari sifatida takliflarning aksariyati normativ tahlil va qiyosiy-huquqiy metodlarga tayanishini, soliq va sud amaliyoti bo'yicha keng miqyosli empirik ma'lumotlar keyingi bosqichda qo'shimcha o'rganilishi lozimligini ta'kidlash mumkin. Kelgusi tadqiqotlarda taklif etilgan mezonlarning amaliy samaradorligini baholash istiqbolli yo'nalish hisoblanadi.

XULOSA

Tadqiqot kichik biznes subyektlarini soliqqa tortish byudjet daromadlarini shakllantirish vositasi bilan chegaralanmay, tadbirkorlik erkinligi, mulkiy huquqlar, davlat nazorati va huquqiy javobgarlik bilan bog'liq kompleks huquqiy institut ekanligini ko'rsatdi. Aniqlangan asosiy muammolar — soliq rejimlari o'rtasida o'tish mexanizmidagi kolliziyalar, qonunchilik barqarorligining yetarli darajada ta'minlanmaganligi, suiiste'mol mezonlarining noaniqligi, nazorat va javobgarlikda mutanosiblik kafolatlarining zaifligi hamda raqamli ma'muriyatchilik va nizolarni hal etish mexanizmlaridagi bo'shliqlardir.

Quyidagi takliflarni berishimiz mumkin: rejimlar o'rtasida o'tish shartlari va oqibatlarini Soliq kodeksida aniq belgilash; soliq stavkalari va chegaraviy ko'rsatkichlarni o'zgartirishni oldindan e'lon qilish hamda o'tish davri tartibini joriy etish; nazorat va javobgarlik choralarida mutanosiblik tamoyilini mustahkamlash; soliq rejimini suiiste'mol qilishning huquqiy mezonlarini qonunchilikda belgilash; elektron hujjatlar va texnik xatolar oqibatlariga oid normalarni aniqlashtirish, nizolarni sudgacha hal etish tartibini kengaytirish. Bu takliflar soliq qonunchiligini takomillashtirishda, soliq organlari va sudlar faoliyatida, tadbirkorlarga huquqiy yordam ko'rsatishda hamda "Soliq huquqi" va "Tadbirkorlik huquqi" fanlarini o'qitishda qo'llanilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. “Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 16.02.2026 yildagi PF-21-son https://lex.uz/docs/-8050769
2. O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi, 2019-yil 30-dekabr, O‘RQ-599-son (yangi tahrir) https://lex.uz/acts/-4674902
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kichik biznes subyektlarining o‘sishi uchun yanada qulay iqtisodiy va ma’muriy shart-sharoitlar yaratish to‘g‘risida”gi PF-100-son Farmoni (26-may 2026-yil), 3-modda. https://www.lex.uz/uz/docs/-8236831
4. Victor Thuronyi, Comparative Tax Law (Kluwer Law International 2003); Hugh J Ault and Brian J Arnold, Comparative Income Taxation: A Structural Analysis (3rd edn, Kluwer Law International 2010); Ben J M Terra and Peter J Wattel, European Tax Law (6th edn, Kluwer Law International 2012).
5. Joel Slemrod and Shlomo Yitzhaki “Tax Avoidance, Evasion, and Administration” in Alan J Auerbach and Martin Feldstein (eds), Handbook of Public Economics, vol 3 (Elsevier 2002) 1423–1470; Richard M Bird “Improving Tax Administration in Developing Countries” (2015) 1(1) Journal of Tax Administration 23–45; Joel Slemrod “Tax Compliance and Enforcement: New Research and Its Policy Implications” (2016).
6. OECD, Tax Administration 2025: Comparative Information on OECD and Other Advanced and Emerging Economies (OECD Publishing 2025).
7. OECD “Corporate Income Taxation and Business Dynamism” (OECD Tax Policy Briefs, 27 May 2026). https://www.oecd.org/en/publications/corporate-income-taxation-and-business-dynamism_59a40a50-en
8. Code of the Republic of Kazakhstan “On Taxes and Other Obligatory Payments to the Budget” (Tax Code) No 120-VI LRK (25 December 2017), art 687. https://old.adilet.zan.kz/eng/docs/Z1800000197
9. Umsatzsteuergesetz (Value Added Tax Act) (UStG) 1999 (Germany), s 19. https://datenbank.nwb.de/Dokument/827178_19/
10. Internal Revenue Code 26 USC § 7803(a)(3) (USA).
11. Tax Code of the Russian Federation (Part One) No 146-FZ (31 July 1998), art 54.1.